

SIE BIN SINNING EMOTSIONAL DISKURSI: YUMSHOQLIK, SOKINLIK, ICHKI KUCH



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-26-793-799>

Toshbekova Iroda Sobirjon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti II bosqich magistranti

Irodaahmedova777@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada XX asr boshidagi xitoy adabiyoti maydonida ayol adib sifatida Bin Sinning poetik uslubi tahlil qilinadi. Unda shoira ijodida yuzaga chiqqan emotsional diskurs – yumshoqlik, sokinlik va ichki kuchning badiiy ifodasi o‘rganilgan. Tadqiqotda feministik nazariyalar asosida Bin Sin poeziyasidagi ayollik sub’ektivligi, onalik obrazining poetik ramzi, sokinlik orqali introspektiv qarshilik va bardoshlilik motivlari yoritilgan. Maqola ayol yozuvchilar nutqining o‘ziga xos strategiyasi sifatida “yumshoqlik orqali qarshilik” fenomenini ko‘rsatib beradi hamda Bin Sin poetikasining estetik va ijtimoiy ahamiyatini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *Bin Sin poeziyasi, emotsional diskurs, ayollik ovozi, yumshoqlik, sokinlik, ichki kuch, bardoshlilik, feministik adabiyotshunoslik, onalik obrazi, introspektiv qarshilik.*

XX asr boshida Xitoy adabiy maydonida ayol yozuvchilar ovozi asta-sekin ko‘rinish bera boshladi. 1919-yilgi To‘rtinchi may harakati davrida yangicha adabiyot(新文学) jarayonida ko‘proq erkak ziyolilar faol bo‘lsa-da, ayol yozuvchilar ham asta-sekin o‘z ovozi topdi. Ularning ijodida markaziy masala milliy siyosat yoki ijtimoiy kurash emas, balki ichki dunyo, hissiyot va shaxsiy tajriba edi. Nazariy jihatdan bu hodisa ko‘pincha “ayol diskursi” (女性话语) tushunchasi orqali tahlil qilinadi [Showalter, 1985:131]. Bin Sin poeziyasi shu jarayonning yorqin namunasi bo‘ldi. Uning she‘rlari hajman ixcham, til jihatdan sodda bo‘lsa-da, ular orqali yangi “ayol ovozi” paydo bo‘ldi. Bu ovoz o‘ziga xos: yumshoqlik va sokinlik ohangiga ega, ammo ayni paytda ichki kuch va bardoshlilik bilan to‘yingan. Shoira o‘zining poetikasida “ayollik sezgirligi”ni (女性敏感性) yangi badiiy mezonga aylantirdi [张玉红, 2016:128].

Feminist nazariyalar ham shuni ta’kidlaydiki, emotsional diskurs – bu ayol yozuvchilarning eng muhim poetik strategiyalaridan biridir. Elaine Showalter (1985) ayollarning yozuvdagi ovozi “subyektivlik va hissiyot orqali patriarxal nutqni qayta talqin qilish” deb izohlaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham Bin Sinning poetik

nutqi aynan shu jihatdan qadrlanadi: u hissiy samimiyatni estetik qadriyat sifatida ko'rsatdi va ayollik sub'ektivligini modern poeziyaga olib kirdi [Huang, 2019:220; Chen, 2021:102].

Demak, Bin Sin poetikasida emotsional diskurs faqat his-tuyg'ularni ifodalash emas, balki ayollikning yangi badiiy paradigmasi sifatida qaraladi. U orqali shoira sokinlik, yumshoqlik va mehrni poetikaning asosiy ohangiga aylantirdi, shu bilan birga ayollikka xos ichki kuch va bardoshlilikni ham ifoda etdi.

Yumshoqlik va muloyimlik ohangi. Bin Sinning poeziyasi ayol shoir sifatida eng avvalo ona obrazida mujassam yumshoqlik va mehr orqali namoyon bo'ladi. Ona – bu faqat biologik timsol emas, balki poetik diskursda mehr, himoya, tinchlik va ruhiy panoh ramzi sifatida chiqadi. Bu turdagi diskurs esa “maternal voice” (ona ovozi) deb ta'riflanadi [Showalter, 1985:142].

Fanxing №33:

“母亲呵！	(“Ey ona, qo'ying g'am-u iztirobni,
撇开你的忧愁，	Bag'ringizda uxlay – bering iznni.
容我沉酣在你的怀里，	Faqat sizdir – mening ruhimga orom;
只有你是我灵魂的安顿。	Yolg'iz siz–qalbimning panoh makoni.”)

Bu she'rda lirik “men” onaga murojaat qilib, uni bevosita dialog shaklida tasvirlaydi. “怀里” (bag'ir) so'zi faqat jismoniy mehrni emas, balki ruhiy panohni bildiradi. Ona – yumshoqlikning poetik ifodasidir. Shoira “灵魂的安顿” (ruhning maskani) iborasi orqali onalikni butun hayotiy barqarorlik markaziga aylantiradi [Bin Sin, Fanxing, 冰心全集·第一卷, 1990:214].

Fanxing №80:

“母亲呵！	(“Onajon, sochim tizzangda,
我的头发，	Yoyilgan sokin holatda.
披在你的膝上，	Bu sen bergan ipdek nozik,
这就是你付与我的万缕柔	Mehr bor har bir tolada.”)

丝。”

Bu she'rda ona–bola munosabati yana ham intim va samimiy tarzda ifodalangan. Bola o'z sochlarini ona mehrining davomchisi sifatida tasvirlaydi: “万缕柔丝”. Bu metafora orqali ona va bola o'rtasidagi ruhiy va jismoniy bog'liqlik mustahkamlanadi. Yumshoqlik poetik diskursning markaziy estetik qiymatiga aylanadi [Bin Sin, Fanxing, 冰心全集·第一卷, 1990:241].

Bu ikki misolda Bin Sin poetikasidagi yumshoqlik ikki qatlamda ko'rinadi:

1. Ona obrazi orqali mehribonlik (Fanxing №33) – ona qalbi farzand uchun ruhiy maskan sifatida.

2. Ona–bola jismoniy yaqinligi orqali yumshoqlik (Fanxing №80) – soch va tizza tasvirida ona bergan mehrning davomiyligi.

Shu tariqa, Bin Sinning “ayollik ovozi” eng avvalo ona obrazidagi yumshoqlik va mehr orqali ifodalanadi. Bu shoironing emotsional diskursida ayollik sub’ektivligining eng yorqin ko‘rinishlaridan biridir [张玉红, 2016:130; Chen, 2010:74].

Sokinlik va introspektiv ohang. Bin Sinning emotsional diskursida “sokinlik” tushunchasi alohida o‘rin tutadi. Shoir ko‘pincha tabiat manzaralaridan foydalanib, ichki ruhiy tinchlik va introspektiv kayfiyatni ifodalaydi. Bu tinchlik passiv emas, balki “sokin qarshilik” deb ataladigan estetik mexanizmdir: ya’ni shoironing ichki dunyosi tashqi shovqinlarga qarshi sukut bilan javob beradi [Huang, 2019:219].

Chunshui №127:

“清晓—
静悄悄地走入园里，
万有都在睡梦中呵！”

(“Tong saharda –
Sokin yurib kirdim bog‘ ichra,
Ko‘rdimki, har narsa uyquda.”)

Bu she’rda “静悄悄” (mutlaq sokinlik) tasviri shoironing ichki ruhiy holatini ifodalaydi. Bog‘dagi tinchlik – lirik “men”ning introspektiv qarashlarining tashqi manzaradagi aksi. O‘quvchi shu satrlarda shoironing ichki ovozini deyarli eshitadi: sukut, sukunat va ichki sokin qarshilik [Bin Sin, Chunshui, 冰心全集·第一卷, 1990:354].

Fanxing №90:

“坐久了，
推窗看海罢！
将无边感慨，
都付与天际微波。”

Bu satrda lirik men sokinlikni faol introspeksiya vositasiga aylantiradi. “无边感慨” (cheksiz tuyg‘ular) tashqi sukunat orqali badiiy tarzda yoyiladi. Dengiz manzarasi shoironing ichki iztirobini yutadi va uni tinchlikka aylantiradi [Bin Sin, Chunshui, 冰心全集·第一卷, 1990:329].

Chunshui №81:

“我独自
经过了青青的松柏，

(“Yolg‘iz o‘tdim yashil oralab,
Tosh zinada ko‘tarildim balandlab.
Ibodatxonadir – qumda salobat,

上了层层石阶。	Changlar ichra turar u sobit.
祈年殿	Men... men qaradim sokin yurakda,
庄严地立在黄尘里，	Faqat bosh egdim chuqur, sukutda.”)
我——我只能深深地低首了！”	

Bu she’rda introspektivlik va sukut diniy ruh bilan uyg’unlashadi. Lirik men “只能低首” (faqat bosh egdim) iborasi orqali o’zining ichki sokin qarshiligini ifodalaydi: tashqi olamning ulug’vorligi oldida shoiraning javobi sukut va introspektivlik bo’ladi [Bin Sin, Chunshui, 冰心全集·第一卷, 1990:323].

Bu misollarda sokinlik ikki qatlamda namoyon bo’ladi:

1. Tabiat tasvirida sokinlik (№127 va №90) – tongdagi uyqudagi bog‘, dengiz to’lqinlari. Bu tasvirlar shoiraning ichki dunyosidagi tinchlikni tashqi manzara bilan uyg’unlashtiradi.

2. Introspektiv qarshilik (№81) – shoiraning sukut orqali kuchini namoyon etishi. Bu qarshilikda ovoz yo‘q, ammo ichki barqarorlik va bardoshlilik mavjud.

Demak, Bin Sin poetikasida sokinlik passiv emas, balki faol emotsional diskurs sifatida qaraladi: u shoiraning ichki ovozini himoya qiladi va o‘quvchini ham introspektiv jarayonga jalb etadi [Chen, 2010:78; Zhang, 2016:132].

Ichki kuch va bardoshlilik: ayollik subyektivligida qat’iyat. Bin Sin poetikasida ko‘pincha yumshoqlik va sokinlik asosiy ohang sifatida ko‘riladi. Lekin bu sokin ovozning ichida yashirin ichki kuch va qat’iyat hamisha mavjud. Feminist adabiyotshunoslikda ayolona poetik nutq ko‘pincha “yumshoqlik orqali qarshilik” deb ta’riflanadi [Showalter, 1985:142]. Bin Sin poeziyasi bunga yorqin dalildir: shoiraning diskursi tashqi tomondan muloyim ko‘rinsa-da, ichki qatlamda u hayot sinovlariga bardosh beruvchi ruhiy kuchni ifodalaydi.

Chunshui №85:

“我的朋友！	(“Do‘stim!
倘若你忆起这一湖春水，	Agar eslasang bahor ko‘lini,
要记住	Yodingda tut
它原不是温柔，	U mayin emas,
只是这般冰冷。”	Balki sovuq”)

Bu she’rda tashqi go‘zallik (bahor suvi) ostida yashiringan sovuqlik ifodalanadi. Shoiralar bu kontrast orqali hayotning iztirobli haqiqatini tan olishga chaqiradi. Lirik “men” yumshoqlik emas, balki haqiqatni qabul qilishdagi qat’iyatni namoyon etadi. Shu bilan Bin Sin ayollik subyektivligida ichki bardoshlilikni tasvirlaydi [Bin Sin, Chunshui, 冰心全集·第一卷, 1990:331].

Bu she'rdagi tashqi go'zallik (bahor suvi) ostida yashiringan sovuqlik ifodalanadi. Shoir bu kontrast orqali hayotning iztirobli haqiqatini tan olishga chaqiradi. Lirik "men" yumshoqlik emas, balki haqiqatni qabul qilishdagi qat'iyatni namoyon etadi. Shu bilan Bin Sin ayollik subyektivligida ichki bardoshlilikni tasvirlaydi [Bin Sin, Chunshui, 冰心全集·第一卷, 1990:331].

Fanxing №100:

“夜半—
宇宙的睡梦正浓呢！
独醒的我，
可是梦中的人物？”

(“Tun yarim – borliq ham jim,
Men uyg'oqman, dunyo lim.
Koinot uyquda, men esa hush
Bo'ldimmi kimgadir tush?”)

Bu satrda shoiraning yolg'iz uyg'oqligi ruhiy bardoshlilik ramziga aylanadi. Atrofdagi olam uyquda bo'lsa-da, lirik "men" uyg'oq turibdi. Bu obraz ichki kuch va ongli qarshilikni bildiradi: jamiyat uyquda, ammo shoir uyg'oq. Bu esa Bin Sinning poetikasida ayollik ovozi ijtimoiy va ruhiy qat'iyatini ko'rsatadi [Bin Sin, Fanxing, 冰心全集·第一卷, 1990:335].

Fanxing №132:

“我的心呵！
你昨天告诉我，
世界是欢乐的；
今天又告诉我，
世界是失望的；
明天的言语，
又是什么？”

(“Ey qalbim!
Kecha deding:
“Dunyo – quvonch”;
Bugun esa aytding:
“Asli dard-u ranj”;
Ertaga-chi?
Nima deysan yana?”)

Bu she'rdagi ichki dialog (qalb bilan suhbat) orqali shoiraning ruhiy iztiroblari ifodalanadi. Ammo bu iztirob ichki kuchning belgisi sifatida namoyon bo'ladi: shoir o'z qalbi bilan tortishib, uni sinovdan o'tkazadi. Bu introspektiv muloqotda shoiraning bardoshlilik va qat'iyati seziladi: u tashqi dunyoga bo'ysunmay, o'z qalbi bilan yuzma-yuz turadi [Bin Sin, Chunshui, 冰心全集·第一卷, 1990:345].

Bin Sinning emotsional diskursida ichki kuch uch asosiy shaklda ko'rinadi:

Haqiqatni qabul qilishdagi qat'iyat (№85) – tashqi go'zallik ostidagi sovuqlikni tan olish.

Jamiyat uyqusiga qarshi uyg'oqlik (№100) – lirik men uyg'oq turib, ruhiy qarshilikni bildiradi.

Qalb bilan ichki dialog (№131) – iztirob va shubhalarni bardoshlilik bilan ko'tarish.

Demak, Bin Sin poetikasida ayollik diskursi faqat yumshoqlik va sokinlik emas, balki bardoshlilik va ichki qat'iyatning ham poetik ifodasidir. Shoirira o'zining sokin diskursida kuchni yashiradi: u qarshilikni qichqiriq bilan emas, balki sukut va samimiy introspeksiya orqali ifodalaydi [Zhang, 2016:135; Chen, 2021:103]. Bu diskursiy strategiya shoiraning poetikasini ikki jihatdan noyob qiladi:

Estetik jihatdan – minimalistik baihua tilida qurilgan kichik she'rlar chuqur hissiy intensivlikka ega bo'ladi.

Ijtimoiy jihatdan – Bin Sinning ovozi XX asr boshidagi erkaklar hukmron adabiy makonda ayollik sub'ektivligini mustaqil paradigmaga aylantiradi. Zamonaviy tadqiqotchilar ham shuni qayd etadilarki, Bin Sinning poeziyasi "yumshoqlik orqali qarshilik" strategiyasi orqali ayollik nutqini yangicha darajaga ko'tardi [Huang, 2019:220; Chen, 2021:104]. Bu qarashlar uning poetikasini XX asr xitoy adabiyotida faqat lirizm emas, balki ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar bilan ham uyg'un bo'lgan fenomen sifatida baholash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Bin Sin poetikasida emotsional diskurs – ayollik subyektivligini ifodalovchi eng muhim badiiy strategiyalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shoiraning yumshoqlik va sokinlikka asoslangan ohangi tashqi tomondan muloyim ko'rinsa-da, uning ichida bardoshlilik va qat'iyat mujassam. Ona obrazi, tabiat manzaralari hamda introspektiv sukut orqali Bin Sin ayolona ovozni mustaqil badiiy paradigmaga aylantirdi. Shu tariqa, u XX asr xitoy adabiy maydonida ayollik nutqining yangi darajasini yaratib, poetik hamda ijtimoiy-madaniy jarayonda o'ziga xos iz qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 冰心 [Bing Xin]. 冰心全集·第一卷. – 上海: 商务印书馆, 1990. – 356 页.
2. Chen, Jialing. Stylistic Minimalism in Modern Chinese Women's Poetry. – Singapore: Springer, 2021. – 210p.
3. 陈晓红 [Chen Xiaohong]. 冰心诗歌研究. – 北京: 中国社会科学出版社, 2010. – 302 页.
4. 黄琳 [Huang Lin]. “冰心诗歌的语言风格与现代性.” // 当代文艺理论研究. – 2019 年第 4 期. – 322p.
5. Showalter, E. The Female Malady: Women, Madness and English Culture. – London: Virago, 1985. – 308p.
6. 张玉红 [Zhang Yuhong]. 二十世纪女性诗歌的修辞策略: 以冰心为中心. – 上海: 华东师范大学出版社, 2016. – 256 页.

7. Каримов, Акрамджан Абильевич. "ПРОБЛЕМА ОТНЕСЕННОСТИ СЛОВ К 实词 ИЛИ 虚词 В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.21 (2023): 102-105.
8. Назарова, Сайёра. "К ВОПРОСУ О РАЗРАБОТКЕ МЕТОДИКИ ПО РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ КИТАЙСКОМУ ЯЗЫКУ." *Sharq ma'shali/Vostochnyy fakel* 14.1 (2022): 60-66.
9. Zaynitdinovna, Artikova Ziyoda, and Karimov Akram Abilevich. "IN CHINESE, THE USE OF THE AUXILIARY 把 “Бǎ”." *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES* 4.10 (2023): 10-13.
10. Хасанова, Феруза Мирзабековна. "Лексико-семантический анализ лексики произведений Лао Шэ." *Universum: филология и искусствоведение* 11 (78) (2020): 31-34.
11. Mavlyanova, Umida. "О НЕКОТОРЫХ ПОДХОДАХ К ОПРЕДЕЛЕНИЮ РЕКЛАМЫ И РЕКЛАМНОГО ТЕКСТА С ЧИСЛОВЫМИ КОМПОНЕНТАМИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.Special Issue 26 (2022): 143-147.
12. Sultanova, L. A., Khakimova, S. E., Rasuleva, N., Artikova, Z., & Saydalieva, N. (2023). Surgical Terminology of Modern Chinese and Their Thematic Group. *Journal of Law and Sustainable Development*, 11(12), e2695-e2695.
13. poetryinternational.com
14. scholarworks.calstate.edu